

## SURXONDARYO VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2023- yil 1- yanvar holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Surxondaryo viloyatida 2023- yil 1- yanvar holatiga doimiy aholi soni **2806,7** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **63,6** ming kishiga yoki **2,3 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1016,9** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **36,2 %**), qishloq aholisi soni **1789,8** ming kishi (**63,8 %**)ni tashkil etdi.

Viloyat ma'muriy-hududiy jihatdan 1 ta viloyat bo'ysunuvidagi shahar va 14 ta tumanga bo'lingan, aholi zichligi 1 kv. km ga 139,6 kishiga to'g'ri keladi.

Ma'muriy markazi – Termiz shahri bo'lib, aholisi 195,9 ming kishi.

### Doimiy aholi soni



### Tabiiy o'sish



### Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

#### Shahar joylarda



**1016,9** ming kishi

#### Qishloq joylarda




**1789,8** ming kishi

### Doimiy aholi sonining taqsimlanishi


2023- yil 1- yanvar holatiga

#### Erkaklar




**1419,5** ming kishi

#### Ayollar



**1387,2** ming kishi




## Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi

*1- yanvar holatiga, ming kishi*

	2022- yil	2023- yil	O'sish sur'ati, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>2 743,2</b>	<b>2 806,7</b>	<b>102,3</b>
Termiz sh.	189,5	195,9	103,4
tumanlar:			
Oltinsoy	184,0	187,9	102,1
Angor	137,4	140,4	102,2
Bandixon	78,7	80,8	102,7
Boysun	119,7	121,9	101,9
Muzrabot	147,1	150,3	102,2
Denov	399,9	409,5	102,4
Jarqo'rg'on	226,9	232,2	102,3
Qumqo'rg'on	243,7	249,2	102,3
Qiziriq	118,9	121,5	102,2
Sariosiyo	217,7	222,5	102,2
Termiz	80,3	82,2	102,3
Uzun	179,5	183,3	102,1
Sherobod	202,0	206,1	102,1
Sho'rchi	217,9	223,0	102,4

## Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi

*1- yanvar holatiga, ming kishi*




Viloyat hududlari kesimidagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2023- yil 1- yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Denov tumanida 409,5 ming kishi (viloyat aholisi sonidagi ulushi (14,6 %) va Qumqo'rg'on tumanida 249,2 ming kishini (8,9 %), Jarqo'rg'on tumanida 232,2 ming kishi (8,3 %) va aksincha eng kam aholi soni Bandixon tumanida 80,8 ming kishini (2,9 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati yil boshiga nisbatan soni Denov tumanida 9,5 ming kishi (2,4 %) va Qumqo'rg'on tumanida 5,5 ming kishini (2,3 %), Jarqo'rg'on tumanida 5,3 ming kishi (2,3 %) va aksincha eng kam aholi soni Bandixon tumanida 2,1 ming kishini (2,7 %) tashkil etdi.


## Surxondaryo viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2022- yil yanvar-dekabr, dastlabki ma'lumotlar



## Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni

2023- yil 1- yanvar holatiga, ming kishi



## ViLOYAT bo'yicha aholining tabiiy harakati

(yanvar - dekabr)

	<i>kishi</i>			<i>1000 aholiga nisbatan</i>	
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	<i>o'sish, kamayish, +,-</i>	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>
Tug'ilganlar	80 975	81 598	623	29,9	29,4
O'lganlar	12 786	13 853	1 067	4,7	5,0
Nikohlar	26 497	26 751	254	9,8	9,6
Ajralishlar	2 264	2 810	546	0,8	1,0
Ko'chib kelganlar	11 911	9 577	-2334	4,4	3,5
Ko'chib ketganlar	17 699	13 767	-3932	6,5	5,0

Tug'ilish. 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 81,6 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va keyinchalik tirik tug'ilganlar inobatga olinadi), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 29,4 promilleni tashkil etdi, hamda 2021- yilning mos davriga nisbatan 0,5 promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida 29,9 promille bo'lgan).

*Ma'lumot uchun: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo'lsa bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.*




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 81,6 mingta tug‘ilganlar qayd etilgan bo‘lib, shundan, o‘g‘il bolalar 42,1 ming kishini, qiz bolalar 39,5 ming kishini tashkil etadi.

**Hududlar kesimida tug‘ilganlar sonining  
o‘tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi,  
(1- yanvar holatiga, kishi)**

	2022- yil	2023- yil*	O‘sish sur‘ati %
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>80 975</b>	<b>81 598</b>	<b>100,8</b>
Termiz sh.	5472	5794	105,9
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	5520	5326	96,5
Angor	3885	3967	102,1
Bandixon	2354	2553	108,5
Boysun	3295	3288	99,8
Muzrabot	4075	4252	104,3
Denov	12401	12001	96,8
Jarqo‘rg‘on	6931	6980	100,7
Qumqo‘rg‘on	7153	7475	104,5
Qiziriq	3618	3754	103,8
Sariosiyo	6195	6189	99,9
Termiz	2356	2320	98,5
Uzun	5128	5238	102,1
Sherobod	5851	5678	97,0
Sho'rchi	6741	6783	100,6


## Hududlar kesimida tug‘ilishlar soni va tug‘ilish koeffitsiyenti (2022- yil yanvar- dekabr)



**Tabiiy o‘sish.** 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o‘sishi 67,7 ming kishini (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida 68,2 ming kishi ) tashkil etdi.

## Asosiy o'lim sabablari bo'yicha 2022- yil yanvar-dekabr

**Jamiga nisbatan ulushi,  
% da**



**Vafot etganlar.** 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 13,8 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 5,0 promilleni tashkil etdi, 2021- yilning mos davriga 4,7 promille bo'lgan.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 13,8 ming nafar o'lim qayd etilgan bo'lib, vafot etganlarning 49,6 % i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 4,3 % i o'simtalardan, 4,1 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,3 % i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 16,2 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 0,4 % i yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 22,1 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.



**Hududlar kesimida vafot etganlar sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi, kishi**  
(1- yanvar holatiga)

Hududlar	2022- yil	2023- yil*	O'sish sur'ati %
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>12 786</b>	<b>13 853</b>	<b>108,3</b>
Termiz sh.	1074	1082	100,7
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	799	947	118,5
Angor	704	896	127,3
Bandixon	281	436	155,2
Boysun	555	608	109,5
Muzrabot	652	595	91,3
Denov	1862	1699	91,2
Jarqo'rg'on	1213	1220	100,6
Qumqo'rg'on	1081	1259	116,5
Qiziriq	527	659	125,0
Sariosiyo	882	796	90,2
Termiz	425	423	99,5
Uzun	785	924	117,7
Sherobod	877	1132	129,1
Sho'rchi	1069	1177	110,1


**Hududlar bo'yicha nikoh tuzganlar sonining  
o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi, kishi**  
(yanvar-dekabr)



Hududlar	2021- yil	2022- yil*	O'sish sur'ati %
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>26 497</b>	<b>26 751</b>	<b>101,0</b>
Termiz sh.	1613	1765	109,4
tumanlar:			
Oltinsoy	1780	1750	98,3
Angor	1286	1300	101,1
Bandixon	752	711	94,5
Boysun	1073	1111	103,5
Muzrabot	1356	1347	99,3
Denov	3773	3960	105,0
Jarqo'rg'on	2448	2533	103,5
Qumqo'rg'on	2491	2547	102,2
Qiziriq	1128	1185	105,1
Sariosiyo	2026	1983	97,9
Termiz	897	811	90,4
Uzun	1752	1746	99,7
Sherobod	1906	1774	93,1
Sho'rchi	2216	2228	100,5



## Hududlar bo'yicha nikoh tuzganlar soni va nikoh koeffitsiyenti kishi (2022- yil yanvar-dekabr)




**Hududlar bo'yicha nikohdan ajralishlar sonining  
o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi, kishi**  
(yanvar-dekabr)

Hududlar	2021- yil	2022- yil*	O'sish sur'ati %
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>2 264</b>	<b>2 810</b>	<b>124,1</b>
Termiz sh.	296	300	101,4
tumanlar:			
Oltinsoy	124	132	106,5
Angor	101	150	148,5
Bandixon	38	50	131,6
Boysun	71	89	125,4
Muzrabot	103	133	129,1
Denov	288	384	133,3
Jarqo'rg'on	212	265	125,0
Qumqo'rg'on	206	198	96,1
Qiziriq	79	123	155,7
Sariosiyo	205	267	130,2
Termiz	93	119	128,0
Uzun	162	230	142,0
Sherobod	151	208	137,7
Sho'rchi	135	162	120,0

Ajrim koeffitsientida aksariyat tumanlarda o'tgan yilga nisbatan o'sish kuzatildi. O'tgan yilga nisbatan eng ko'p o'sish Qiziriq tumani (0,3 promillega), Denov tumani (0,3 promillega), Termiz shahrida (0,5 promillega) ro'y berdi.

Aksincha kamayish Bandixon tumanida (-0,8 promillega) tumanida kuzatildi.

## Hududlar bo'yicha nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti (2022- yil yanvar-dekabr kishi, promille)



### Aholi migratsiyasi (kishi)

2022- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 9,6 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 13,8 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 4,2 ming kishi bo'lib, 2021- yilning mos davrida minus 5,8 ming kishi bo'lgan.

**2021- yil**  
yanvar-dekabr



**2022- yil**  
yanvar-dekabr



**Ko'chib ketganlar**



**Ko'chib kelganlar**



**Migratsiya saldosi**

## Hududlar kesimida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni (2022- yil yanvar-dekabr uchun, kishi)

Hududlar	Ko'chib kelganlar soni	Ko'chib ketganlar soni	Migratsiya saldos
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>9 577</b>	<b>13 767</b>	<b>-4 190</b>
Termiz sh.	3214	1503	1711
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	210	682	-472
Angor	610	689	-79
Bandixon	298	329	-31
Boysun	306	737	-431
Muzrabot	406	856	-450
Denov	671	1464	-793
Jarqo'rg'on	543	1039	-496
Qumqo'rg'on	410	1129	-719
Qiziriq	388	870	-482
Sariosiyo	342	903	-561
Termiz	826	897	-71
Uzun	378	859	-481
Sherobod	583	954	-371
Sho'rchi	392	856	-464

### Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

**Doimiy aholi** – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayiriladi.

**Tug'ilish** – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**O'lim sabablari** – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.



## SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Ko‘chib kelganlar soni** – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

**Ko‘chib ketganlar soni** – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

**Aholining migratsion o‘sishi (farqi)** – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi**  
**Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi**  
**tel: (76) 225-65-60**